

## XODIMLARNI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH VA UNING HUQUQIY OQIBATLARI

Usmonov Kamoliddin Salimjonovich

*Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi kafedrası magistranti*

*kamoliddin\_usmonov@bk.ru + 998 (97) 919-98-89*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xodimlarning attestatsiya jarayonidan o'tishi va uning huquqiy oqibatlari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, xodim, attestatsiya, tekshiruv, funksiya, lavozim, baholash, ko'nikma, malaka.*

Mamlakatimiz mustaqillikga erishganidan so'ng inson va uning farovonligini ta'minlash yo'lida islohotlar davri boshlandi. Shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish davlatimizning ustuvor siyosati sifatida e'tirof etildi. Bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi iqtisodiy munosabatlarda yangidan yangi subyektlarning vujudga kelishiga, turli xil ijtimoiy institutlarning rivojiga, ayniqsa mehnat munosabatlarining takomillashuviga kuchli turtki bo'lib xizmat qildi. Bu esa mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ularni mehnatiga xolisona baho berish, hamda kadrlarni bilim darajasini oshirishni talab qiladi. Xodimlarning professional bilim va ko'nikmalari darajasi, ishbilarmonlik sifatlarini to'g'ri baholash uchun ularning malakasi va egallab turgan lavozimiga munosibligini vaqti-vaqti bilan tekshirib turishni taqozo qiladi. Odatda, bunday tekshiruv xodimlarni attestatsiyalash asosida amalga oshiriladi. Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish ma'lum bir lavozimni egallagan va muayyan funksiyalarni bajaradigan xodimning malakasini tasdiqlash uchun amalga oshiriladi. Attestatsiya, ehtimol, har bir ish beruvchi uchun eng keng tarqalgan tartiblardan biridir, chunki u nafaqat xodimlarning ishbilarmonlik fazilatlarini tekshirish, balki bilim va tayyorgarlik darajasini ham baholash imkonini beradi.

Attestatsiya tushunchasiga olimlar turlicha ta'rif bergan. M. O. Buyanova attestatsiyani xodimning o'z lavozimiga muvofiqligini aniqlash uchun ma'muriyat tomonidan o'tkaziladigan tekshirish deb ta'rif bergan. O.A.Brayko esa xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni ularning ishbilarmonlik, shaxsiy va ba'zan axloqiy fazilatlarini davriy tekshirish sifatida tushuniladi deb izohlagan. Demak, attestatsiya xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarini oqilona baholashga yordam beradigan, xodimlarining kasbiy mahoratini, ishbilarmonlik faolligini oshiradigan jarayon hisoblanadi. Attestatsiyani o'tkazish tartibi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, normativ hujjatlar va xodimlarning vakillik organi fikrini inobatga olgan holda qabul qilinadigan, korxonaning boshqa lokal hujjatlari bilan belgilanadi. Yuridik fanlar nomzodi G.Chochua ta'kidlaganidek, "Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi nizom xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish masalalari bo'yicha tizimli ravishda o'zaro bog'liq qoidalarni belgilaydigan va uni tashkil etishni tartibga soluvchi hujjatdir" deb izohlaydi. Ushbu fikrga qo'shilgan holatda xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi nizomni xodim va ish beruvchilar uchun attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish, uni o'tkazish, xodimni kasbiy mahoratini yanada oshirish yo'llarini belgilash

masalalari bo'yicha tizimli ravishda o'zaro bog'liq qoidalarni belgilaydigan normativ huquqiy hujjat sifatida baholashimiz ham mumkin.

Sohalardagi xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish kadrlar siyosati va davlat xizmati boshqaruvining demokratik asoslarini kengaytirishda huquqiy vosita hisoblanadi, bundan tashqari, u davlat organlarida shakllantirilib, maqsad sari yo'naltirilgan va bashorat qilinadigan kadrlar siyosatini ta'minlash vositasi hamdir. Attestatsiya - davlat xizmatining huquqiy instituti sifatida quyidagilardan iborat: tashkil etish jarayonida shakllanadigan munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi huquqiy meyorlar majmui; davlat organlari vakolatlarini ta'minlash va amalga oshirish uchun belgilangan vazifalarning davlat xizmatchilari tomonidan bajarilishini baholash; fuqarolar xizmati kadrlaridan istiqbolda foydalanish tavsifnomasi. Davlat xizmatini takomillashtirish va tartibga solish, xizmatchilarni attestatsiyadan o'tkazish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Davlat xizmatini o'tashda davlat xizmatchilarining attestatsiyadan o'tkazish huquqiy instituti katta ahamiyatga ega. Mazkur huquqiy institutni tartibga solishga O'zbekiston Respublikasining maxsus qonuni mavjud bo'lmasa-da, bir qator normativ-huquqiy hujjatlar amalda kuchga ega. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator qarorlar qabul qilingan hamda attestatsiyadan o'tkazish tartiblari to'g'risidagi nizomlar tegishli vazirlik va qo'mitalar tomonidan tasdiqlangan. Islohotlar davrida davlat xizmatchilarini tanlash, joy-joyiga qo'yish va attestatsiyadan o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda xodimlarning kasbiy mahoratga ega ekanligi, intellektual salohiyati darajasi, kirishimlilik singari sifatleri davlat xizmati lavozimini egallash uchun kifoya qilmaydi. Mamlakatda islohotlarga uning munosabati va shu islohotlarni chuqurlashtirishda bevosita ishtirok etishga tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish huquqiy instituti davlat xizmatini tashkil etish, turli davlat organlari vakolatlarini amalga oshirish va ta'minlash bo'yicha vazifa va majburiyatlarni bajarish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir. Tor ma'noda, attestatsiya xizmatchilarning professional, ishchanlik va shaxsiy xislatlariga baho berish, uning xizmat-lavozim talablariga mos kelishini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Attestatsiyani kiritishdan birlamchi maqsad, xizmatchining bilim va malakasi darajasini belgilash bo'lib, ular xizmatchiga biron-bir unvon yoki toifa va h.k. belgilashda asosiy shartlardan hisoblanadi. Demak, davlat xizmatchisini attestatsiyadan o'tkazish ikki asosiy vazifaning mohiyatini ochib beradi: birinchidan, xizmatchini egallagan lavozimiga loyiq yoki loyiq emasligini, ya'ni uning professionallik tayyorgarligini aniqlash; ikkinchidan, navbatdagi malaka darajasini berish. Keng ma'noda, attestatsiya quyidagi vazifalarni amalga oshiradi :

- amaliyotda davlat xizmati prinsiplariga rioya etish;
- davlat xizmati tizimida qonuniylikni ta'minlash;
- davlat organlarining professional kadrlar majmuasini tashkil etish;
- davlat xizmatchisining xizmat bo'yicha harakatlanishi maqsadida ularning potensial imkoniyatlarini aniqlash;

– davlat xizmatchisiga javobgarlik choralarini qo'llash; intizomni va javobgarlikni oshirish;

– xizmatchilarning xizmat pillapoyasi bo'yicha harakatlanishini ta'minlash;

– davlat xizmati muvozanatini ta'minlash;

– davlat xizmatchilarining malakasini oshirishni tartibga solish;

– davlat xizmati tizimida huquqbuzarliklarga va korrupsiyaga qarshi kurash, ogohlantirish va boshqalar.

Bugungi kunda pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasi berish bo'yicha hujjatlarni qabul qilish pedagog kadrlar tomonidan davlat xizmatlari markazlariga borgan holda yoki mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud Ta'lim inspeksiyasi rasmiy veb-saytidagi maxsus portal orqali amalga oshirilishi joriy etilgan. Shu bilan birga pedagog kadrlarga qog'oz shaklidagi attestatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi sertifikat berish amaliyoti bekor qilinib, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va QR-kod qo'yilgan elektron shakldagi sertifikat berish tartibi joriy etilishi belgilangan. Qolaversa pedagog kadrlarga ushbu qaror qabul qilingunga qadar berilgan attestatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi sertifikatlar o'z kuchida qolishi hamda amaldagi malaka toifasini tasdiqlashda va amal qilish muddati tugagunga qadar sertifikatda ko'rsatilgan malaka toifasi bo'yicha bazaviy tarif stavkalari asosida haq to'lashda hisobga olinishi tasdiqland. Ushbu imkoniyatlarning yaratilishi albatta xodimlarning attestatsiya bilan bog'liq ayrim ovoragarchiliklarni oldini olishga yordam beradi

Attestatsiya davlat xizmatchilarining kasbiy xislatlariga baho berishdir. Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishidan tashqari, siyosiy jihatlarga ham ega. Attestatsiyaga tayyorgarlik reja asosida olib borilishi zarur bo'lib, bunda, birinchi o'rinda, xizmatchilarga attestatsiyaning maqsad, vazifalari va o'tish tartibi tushuntirib beriladi, so'ng attestatsiyadan o'tadigan xizmatchilar doirasi aniqlab olinadi. Attestatsiya o'tkazish maqsadida attestatsiya komissiyasi tuziladi, attestatsiya o'tkazish jadvali tasdiqlanadi hamda attestatsiya komissiyasi uchun zarur bo'lgan hujjatlar tayyorlanadi. Attestatsiyada ishtirok etish har bir davlat xizmatchisining muhim burchi va vazifasidir. Mazkur vaziyatning huquqiy tomoni shundaki, davlat xizmatchilari muntazam ravishda belgilangan tashkiliy-huquqiy shaklda attestatsiyadan o'tishlari shart. Attestatsiyadan o'tkazish qoidalariga bo'ysunish va attestatsiya komissiyasining tavsiyalarini bajarish har bir davlat xizmatchisining yuridik burchidir. Attestatsiyadan barcha davlat xizmatchilari o'tishi shart. Istisnoni quyidagilar tashkil etadi:

● ushbu lavozimda bir yildan kam muddat davomida ishlayotganlar;

● homilador ayollar;

● homiladorlik va tug'ruq hamda uch yoshgacha bo'lgan bolaning parvarishi bo'yicha ta'tilga chiqqan ayollar. Attestatsiyaning mazmuni va mohiyati uning prinsiplarida aks ettirilgan. Ular davlat organlarining attestatsion tajribasiga asoslanib ishlab chiqiladi. Davlat xizmatchilarining attestatsiyalari quyidagi asosiy prinsiplarga tayanib shakllantiriladi:

- attestatsiyaning partiyadan xoliligi;

- attestatsiyaning umumiyligi;

- oshkoralik;
- kollektiv baholash;
- attestatsiyaning davriyligi (tizimlilik);
- baholashning obyektivligi;
- baholashning kompleks ravishda amalga oshirilishi;
- baholashning va tavsiyalarning asoslanganligi;
- attestatsiya natijalariga ko'ra javobgarlik yoki rag'batlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralar ko'rilishining majburiyligi.

Attestatsiyaning umumiyliigi uning barcha davlat organlarida o'tkazilishini anglatadi. Davlat xizmati lavozimlarini egallagan barcha shaxslar attestatsiyadan o'tishlari shart. Oshkoralik prinsipi attestatsiya jarayoning ochiq-oydin o'tkazilishini anglatadi. Bu prinsip attestatsion materiallarning hammabopligi, baholashning demokratiyaviyligi, attestatsiyadan o'tayotgan shaxsning kasbiy, shaxsiy va ma'naviy sifatlarini hamda uning xizmat faoliyatini har tomonlama muhokama etishning oshkoraligi bilan tavsiflanadi. Attestatsiyadan o'tadigan xizmatchiga rahbariyat tomonidan berilgan tavsifnoma bilan tanishish huquqining berilishi ham oshkoralikdan dalolatdir. Mazkur tavsifnoma bo'yicha u o'z e'tirozlarini bildirish hamda muayyan davlat organi yoki uning bo'linmasi faoliyatini yaxshilash borasidagi taklif va mulohazalarini tayyorlab berish imkoniyatiga ega. Attestatsiya natijalari ovoz berish tugashi bilanoq ochiq e'lon qilinadi. Baholashning jamoaviyligi attestatsiyaning muhim prinsipi sanaladi. Uning mohiyati shundaki,

birinchidan, attestatsiyaga oid axborotni yig'ish, tahlil qilish va umumlashtirish, xizmatchilarning kasbiy hamda ma'naviy sifatlarini ko'rib chiqish va baholash jarayoni yuqori malakali va nufuzli mutaxassislar guruhi, ya'ni attestatsiya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, baholashning jamoaviyligi, attestatsiyadan o'tayotgan xizmatchining kuchli va zaif tomonlari haqidagi samarali fikr almashinuvi imkoniyatini beradi. Attestatsiya davomidagi oshkoralik, baholashning jamoaviyligi va ko'pchilik fikrining inobatga olinishi, davlat organlari xizmatchilarini muhim talablarni amalga oshirish uchun sharoit yaratishda, shaxsiy emas, balki jamoat manfaatlarini ko'zlashga yo'naltiradi.

Attestatsiya komissiyasining baholash va tavsiyalarning asoslanganligi prinsipi eng asosiy jihatlardan biri sanalib, bunda, berilgan u yoki bu bahoni asoslab berish - xodimning haqiqiy tahsinga loyiq xizmatlarini aks ettirishdagi adolatliligi, maqsadga muvofiqligi va haqqoniyligini, shu bilan birga, mavjud kamchilik va xatolarini aks ettirish demakdir. Attestatsiyaning qolgan barcha prinsiplarini amalga oshirish darajasi hamda uning huquqiy mohiyati amaliylik prinsipi orqali belgilanadi, ya'ni, bu yerda, attestatsiya natijalariga muvofiq tashkiliy-huquqiy choralarning ko'rilishi, ma'lum malaka darajasining berilishi, zarur vaziyatlarda esa, javobgarlik va rag'batlantirish choralarining ko'rilishi tushuniladi. Agar attestatsiya natijalari amalda e'tiborsiz qoldirilib, unga muvofiq zarur hollarda rag'batlantirish choralari ko'rilmasa, unda xizmatchi faoliyatini baholashning bu shakli xodimlar bilan ishlash tizimida yuqori o'rinni egallay olmaydi.

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”. 2021. – 464. B.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida”gi Qarori//<http://lex.uz//ru/docs/-56412704>. O'zbekiston Respublikasi Qonuni “Davlat bojxona xizmati to'g'risida”// <http://lex.uz//docs/-4000640>

3. Haydarov A. Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish. – Toshkent: Kamalak. 2019. – 192. B.

4. Mehnat huquqi. Darslik. Yu.f.d., prof.M.Usmanovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: TDYuU, 2018. –B.505

5. Xojiyev E., Xojiyev T. Ma'muriy huquq. –T.: “Fan va texnologiya”, 2008. 236-b.